



## O'ZBEK TILIDA MURAKKAB SINTAKTIK QURILMALARNI FARQLASHNING AMALIY MUAMMOLARI

**Abdug'aniyeva Muxlisa Abdunabi qizi**

*University of Business and Science*

*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

*E:mail: [abduganiyevamuxlisa173@gmail.com](mailto:abduganiyevamuxlisa173@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek tili sintaksisining eng murakkab va bahsli masalalaridan biri murakkab sintaktik qurilmalarni o'zaro farqlash mezonlari tadqiq etiladi. Xususan, qo'shma gaplar, uyushiq kesimli sodda gaplar va uyushgan gaplarning struktur-semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda kesimlar soni va ularning ega bilan munosabati, predikativlik markazlarining shakllanishi hamda [Pm] (predikativ markaz) ko'rsatkichlarining roli ilmiy asoslab berilgan. Maqolaning maqsadi ushbu qurilmalarni bir-biridan ajratishda yuzaga keladigan chalkashliklarni bartaraf etish uchun aniq lingvistik mezonlarni ishlab chiqishdan iborat. Mazmuniy va shakliy yondashuvlarning o'zaro mutanosibligi misollar orqali yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** murakkab sintaktik qurilma, qo'shma gap, uyushiq kesimli sodda gap, uyushgan gap.

### **Kirish**

Sintaksis sohasidagi eng katta muammolardan biri bu o'zaro o'xshash qurilmalarni chegaralashdir. O'zbek tilida ikki yoki undan ortiq kesim ishtirok etgan gaplarni har doim ham qo'shma gap deb bo'lmaydi. Maktab va oliy ta'lim darsliklarida uyushiq kesimli sodda gaplar bilan qo'shma gaplarni aralashtirib yuborish holatlari tez-tez uchraydi. Ushbu maqolada ushbu chalkashliklarga chek qo'yuvchi asosiy mezonlar va ularning nazariy asoslari tahlil qilinadi.

### **[Pm] Konsepsiyasi Va Predikativlik Markazi**

Har qanday gapning asosi uning predikativlik markazidir. Sodda gapda predikativlik markazi bitta bo'ladi. Agar gapda bir nechta kesim bo'lib, ular bitta egaga bo'ysunsa, bu qurilma uyushiq kesimli sodda gap deyiladi. . Qo'shma gapda esa kamida ikkita mustaqil predikativlik markazi [Pm1 + Pm2] mavjud bo'ladi. Farqlash algoritmi: Kesimlar soniga emas, balki "Har bir kesimning o'z egasi bormi?" yoki "Harakat bajaruvchisi yagona shaxsmi?" degan savollarga javob izlash kerak. Ko'pincha "U keldi va o'tirdi" kabi gaplar qo'shma gap sifatida xato talqin qilinadi.

Shakliy tahlil: Bu yerda bitta ega ("U") ikkita harakatni ("keldi", "o'tirdi") bajaryapti. Bu uyushiq kesimli sodda gap. Qo'shma gap varianti: "U keldi va



dars boshlandi." Bu yerda "kelgan" u, "boshlangan" dars. Ikki xil ega, ikki xil kesim bu klassik qo'shma gap. Uyushgan gaplar qo'shma gaplarga o'xshasa-da, ularning qismlari semantik jihatdan juda yaqin va ko'pincha umumiy bir bo'lakka (masalan, umumiy holga) ega bo'ladi. Maqolada uyushgan gaplarni qo'shma gaplardan ajratuvchi ohang (intonatsiya) xususiyatlari yoritiladi.

Murakkab qurilmalarni ajratishda quyidagi to'rt mezon taklif etiladi:

1. Subyektlar soni: Har bir kesim o'zining mustaqil subyektiga (egasiga) ega bo'lishi.

2. Kesimlarning shakliy ko'rsatkichlari: Shaxs-son qo'shimchalarining takrorlanishi yoki umumlashtirilishi.

3. Mantiqiy-semantik yaxlitlik: Birinchi qism aytilganda mazmunning tugallanmaganligi.

4. Intonatsion manzara: To'xtam (pauza) davomiyligi va ohang ko'tarilishi.

bog'lovchisi tufayli u formal jihatdan tenglanish aloqasidagi gap hisoblanadi.

**Substansial yondashuv**

Bu yondashuvda gapning mazmuniy qatlami va axborot (propozitsiya) miqdori muhim. Ushbu qarashga ko'ra, bir egali gapda ham birdan ortiq mustaqil shakllangan kesim bo'lsa, u qo'shma gap sifatida baholanishi mumkin. Chunki har bir kesim shakli (shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor) alohida bir axborotni tashuvchi hisoblanadi.

### **Sintaktik Aloqa Turlarining Sodda Va Qo'shma Gapdagi Farqlari**

O'zbek tilshunosligida murakkab sintaktik qurilmalarni (MSQ) farqlash, tahlil qilish va tasniflash ham nazariy, ham amaliy jihatdan murakkab va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Murakkab sintaktik qurilmalar tarkibiga qo'shma gaplar (bog'langan, ergashgan, aralash), period va murakkab sintaktik butunlik (MSB) kiradi. Terminologik Noaniqlik va Tasnif Muammosi:

"Murakkab" va "murakkablashgan" atamalarining farqlanishi tilshunoslikda bahslarga sabab bo'ladi. Murakkab qurilmalar deganda odatda kamida uchta sodda gapning bog'lanishidan hosil bo'lgan qo'shma gaplar tushunilsa, murakkablashgan birliklar sodda gapning uyushiq bo'laklar, kirish so'zlar, ayri bo'laklar bilan kengayishini anglatadi. MSQ, MSB (murakkab sintaktik butunlik) va abzas tushunchalarining o'zaro chegarasini belgilashdagi nazariy ziddiyatlar.

### **Struktural va Semantik Yondashuvlarning Ziddiyati:**

Murakkab gap tarkibidagi komponentlarning sintaktik bog'lanishi (teng yoki tobe) bilan mazmuniy tobelik har doim ham mos kelmaydi. Ba'zida gaplar struktural jihatdan bog'langan bo'lsa-da, semantik jihatdan mustaqil bo'lishi mumkin. Tobe komponentli murakkab sintaktik qurilmalarda bosh gap va



ergash gaplarning joylashuv o'rne (prepozitsiya, postpozitsiya) va ularning semantik munosabatlarini belgilash murakkabligi.

### **Derivatsion Aspekt:**

MSQ hosil bo'lish jarayonida (derivatsiyasida) bevosita ishtirokchilar (BI) guruhini shajara usulida ajratish va ularning tub strukturasi aniqlashda qarama-qarshiliklar mavjud. . Amaliy Muammolar

### **Nutqiy va Uslubiy Xususiyatlar:**

O'zbek shevalari sintaksisida qo'shma gaplarning tahlil etilishi, xususan, gap bo'laklari tartibining erkinligi va tushib qolgan (nol komponentli) bo'laklarni aniqlash amaliy tahlilda qiyinchilik tug'diradi.

Badiiy va ilmiy adabiyotlardagi period (murakkab qo'shma gap turi) va prozaik strofalarning strukturasi to'g'ri ajratish, ularni gap bo'laklariga tahlil qilishda "yaxlitlik" tamoyiliga rioya qilish muammosi. Murakkab sintaktik butunlik (MSB) matn tarkibidagi tugallanganlikni ifodalasa-da, uning chegarasini belgilash amalda murakkab. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda intonatsiya va mazmuniy yaxlitlikni to'g'ri aniqlash, ularni mustaqil gaplardan ajratish.

O'zbek tili darsliklarida sodda va murakkab gaplarga nisbatan turlicha yondashuvlarning mavjudligi, substansial sintaksis (gapning eng kichik qurilish qolipi) orqali tahlil qilish amaliyotining yetishmasligi. Kompyuter lingvistikasi va sun'iy intellekt modellarini yaratishda o'zbek tilidagi sintaktik strukturalarni (so'z tartibi erkinligi, morfologik murakkablik) modellashtirishdagi muammolar. Tenglanish va tobelanish aloqalari sodda va qo'shma gaplarda turlicha vazifa bajaradi.

1. Strukturaviy vazifa: Sodda gapda teng aloqa faqat bo'laklarni (so'zlarni) uyushtiradi va gapni kengaytiradi. So'z birikmalarini esa faqat tobe aloqa vujudga keltiradi (masalan, kitobni o'qimoq). Qo'shma gapda esa har ikki aloqa turi ham yagona butunlik qo'shma gapni hosil qilish uchun xizmat qiladi.

2. Ma'no intensivligi: Tobe bog'lovchilar semantik munosabatni (masalan, sababni) kuchliroq ifodalaydi, teng bog'lovchilar esa xuddi shu ma'noni kuchsizroq namoyon qiladi.

3. Bog'lovchisizlikning o'rne: Sodda gapda so'z birikmasi tarkibidagi tobe aloqani (masalan, kelishiklarni) bog'lovchisizlikka almashtirib bo'lmaydi. Ammo qo'shma gapda ham bog'langan, ham ergash gapli qurilmalarni bog'lovchisiz qo'shma gapga aylantirish imkoniyati mavjud. Tadqiqotda alohida urg'u berilgan jihat bu intonatsiyadir. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning o'zaro zichlashuvi mazmun, shakl va intonatsiya asosida bo'ladi. Ammo bular orasida intonatsiya birinchi o'rinda turadi. Agar gaplar orasida barcha belgilar bo'lsa-yu, lekin birlashtiruvchi ohang bo'lmasa, qo'shma gap ikkita mustaqil sodda gapga parchalanadi. Mazmuniy bog'liqlik kuchsiz



bo'lsa-da, intonatsiya yordamida qo'shma gap hosil qilish mumkin. : Sodda gapda bog'lovchisizlik, asosan, tenglanish munosabatini ifodalaydi va u ko'proq uyushiq bo'laklarda yuz beradi. Masalan: "Yashil o'rmonlar, qorli tog'lardan o'tdik." Bu yerda vergul bilan ajratilgan bo'laklar o'rtasida teng bog'lanish mavjud. Biroq so'z birikmasi darajasidagi tobe aloqani bog'lovchisizlikka almashtirib bo'lmaydi. Masalan, "kitobni o'qimoq" birikmasidagi -ni tushum kelishigini olib tashlasak, mantiqiy va grammatik aloqa uziladi. Qo'shma gap tizimida esa vaziyat tubdan farq qiladi. Bu yerda ergash gapli qo'shma gapni ham, bog'langan qo'shma gapni ham osongina bog'lovchisiz qo'shma gapga aylantirish mumkin. Bu hodisa qo'shma gapning sintaktik sinonimiyasi deb ataladi.

Misol:

1. "Bahor keldi va dala ishlari qizib ketdi." (Bog'langan QG)
2. "Bahor keldi, shuning uchun dala ishlari qizib ketdi." (Ergash gapli QG)
3. "Bahor keldi – dala ishlari qizib ketdi." (Bog'lovchisiz QG)

Ushbu uchala gapda ham propositsiya (mantiqiy asos) bitta, lekin ulardagi munosabat kuchi turlicha. Ikkinchi gapda sabab-oqibat munosabati eng yuqori nuqtada bo'lsa, birinchi gapda u birmuncha kuchsizroq namoyon bo'ladi. Ba'zan gapda qo'shma gapning barcha formal ko'rsatkichlari (kamida ikkita ega, ikkita kesim, mantiqiy bog'liqlik) mavjud bo'ladi. Biroq, agar gaplar orasidagi birlashtiruvchi ohang yo'qolsa, yaxlit qurilma parchalunadi.

Tahlil:

"Men sen bilan bormoqchi edim, biroq sen qarshilik qilmasliging kerak." (Bitta qo'shma gap).

"Men sen bilan bormoqchi edim. Biroq sen qarshilik qilmasliging kerak." (Ikkita mustaqil sodda gap).

Ikkinchi holatda nuqta qo'yilishi bilan intonatsion yaxlitlik buziladi va ikkinchi gap "parsellyatsiya" hodisasiga uchraydi. Ya'ni, u birinchi gapga nisbatan bog'langan bo'lsa-da, mustaqil sintaktik birlik maqomiga o'tadi. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda (BSQG) intonatsiya nafaqat birlashtiradi, balki gapning turini ham belgilaydi. Misol: "Bor – boricha, yo'q – holicha." Ushbu maqolda birinchi qism ko'tariluvchi ohang bilan, ikkinchi qism esa tushuvchi va xulosa ohangi bilan aytiladi. Bu esa ularning qiyoslash munosabatida ekanligini bog'lovchilarsiz tushuntirib beradi. Darslik matnida alohida ajratib ko'rsatilgan uyushgan gaplar tushunchasi o'zbek tilshunosligida o'ziga xos yangicha yondashuvdir.

### **Uyushgan gapning farqlovchi belgilari:**

Bu qurilma uyushiq kesimli sodda gapdan o'zining birdan ortiq egasiga egaligi bilan farq qilsa, qo'shma gapdan bitta umumiy [Pm]ga egaligi bilan



ajralib turadi. Misol: "Do'kondorlar savdoga chorlab, attorlar esa mollarini maqtab o'tirishardi." Bu yerda "o'tirishardi" kesimi har ikkala subyekt ("do'kondorlar" va "attorlar") uchun umumiy predikativ ko'rsatkichdir. Agar biz har biriga alohida kesim qo'ysak ("do'kondorlar o'tirishardi, attorlar maqtab turishardi"), u holda u haqiqiy qo'shma gapga aylanadi. Murakkab sintaktik qurilmalarni farqlashda predikativlik markazining transformatsion imkoniyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilida bir xil sintaktik material turli struktural shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Bu holat sintaktik sinonimiya hodisasini yuzaga keltiradi.

Masalan:

“Bahor keldi va dalalar yashnadi.”

“Bahor kelgach, dalalar yashnadi.”

“Bahor keldi – dalalar yashnadi.”

Ushbu uchala qurilma bir xil propozitsiyani ifodalasa-da, ularning sintaktik tashkil topishi turlicha. Bu esa shuni ko'rsatadiki, MSQ (murakkab sintaktik qurilma) tahlilida faqat shakliy ko'rsatkichlar emas, balki transformatsion imkoniyatlar ham asosiy mezonlardan biri bo'lishi kerak. Zamonaviy sintaksisda gap tuzilishi faqat grammatik birlik sifatida emas, balki kommunikativ axborot tashuvchi birlik sifatida ham o'rganiladi. Shu nuqtayi nazardan murakkab sintaktik qurilmalar quyidagi jihatlar asosida baholanadi:

Kommunikativ maqsad: gapning axborot berish darajasi va maqsadi

Informatsion tuzilma: yangi va eski axborotning joylashuvi

Pragmatik yuklama: so'zlovchining munosabati va modal munosabatlar

Bu yondashuvga ko'ra, ba'zan struktura jihatdan sodda bo'lgan gap ham kommunikativ jihatdan murakkab sintaktik vazifa bajarishi mumkin.

### **Xulosa**

O'zbek tilshunosligida murakkab sintaktik qurilmalarni farqlash masalasi bir qator yirik tadqiqotlarda, jumladan, sintaksisga oid darsliklar va monografiyalarda (R. Rasulov, Sh. Shoabdurahmonov, M. Qo'chqorova, H. Ne'matov kabi olimlarning ishlarida) atroflicha yoritilgan. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, gapning asosiy grammatik belgisi uning predikativligi bo'lib, bu xususiyat kesim orqali yuzaga chiqadi. Murakkab kesimli sodda gaplar va qo'shma gaplarni farqlashda darsliklarda berilgan asosiy qoida shundan iboratki, agar kesimlar bitta ega atrofida birlashsa, bu sodda gap hisoblanadi; agar esa har bir kesim alohida ega va alohida predikativ markazga ega bo'lsa, bu qo'shma gap sanaladi. Shuningdek, o'zbek tili sintaksisiga oid ilmiy ishlarda murakkab sintaktik butunlik (MSB) matn lingvistikasi bilan bevosita bog'liq birlik sifatida talqin qilinib, uning chegarasi faqat grammatik emas, balki mazmuniy va kommunikativ omillar asosida belgilanadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, murakkab sintaktik qurilmalarni to'g'ri ajratish uchun



formal (shakliy) va substansial (mazmuniiy) yondashuvlarning uyg'unligi zarur. Faqat bir tomonlama yondashuv faqat shaklga yoki faqat mazmunga tayanish sintaktik tahlilda xatoliklarga olib keladi. Umuman olganda, o'zbek tilida murakkab sintaktik qurilmalarni farqlash muammosi hali ham to'liq yakuniy yechimga ega emas va u zamonaviy lingvistikaning, xususan, korpus lingvistika va kompyuter lingvistikasining dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Qurbonova M.M., Raupova L.R., Abuzalova M.Q., Yo'ldosheva D.N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
2. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov R., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili (sintaksis). – Toshkent: O'qituvchi, 1980.
3. Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). – Toshkent: Fan, 2001.
4. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. O'zbek tilining mazmuniiy sintaksisi. – Toshkent: Universitet, 1998.
5. Rasulov R. O'zbek tilida qo'shma gaplar sintaksisi. – Toshkent: Fan, 1984.
7. Abdurahmonov G., Shukurov Sh. O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1976.